


## QASHQADARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2018 yil yanvar-dekabr)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi


8851,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 654,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 7,2 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 8196,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 646,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 %) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**



2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qarshi sh, Koson, Chiroqchi, Qamashi tumanlarida qayd etildi.


**Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)**



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga o`tdi va 654,9 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,4 % ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 8196,5 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,4 % ga o`tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,6 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



■ Kichik tadbirkorlik  
■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Chiroqchi (99,7 %), Nishon (99,7 %), Koson (99,1%), Yakkabog' (99,6) va Qarshi (99,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (24,6 %), Shaxrisabz (12,4 %) va Muborak (5,2%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>654,9</b>	<b>107,2</b>	<b>8196,4</b>	<b>103,4</b>
<b>G`uzor</b>	3,5	35,1	330,4	105,6
<b>Dehqonobod</b>	6,8	46,7	442,6	105,2
<b>Qamashi</b>	7,5	51,8	609,8	104,8
<b>Qarshi</b>	1,7	81,8	332,3	103,7
<b>Koson</b>	7,5	40,2	863,4	103,9
<b>Kitob</b>	8,2	2 m	556,5	104,1
<b>Mirishkor</b>	5,7	60,2	408,9	106,3
<b>Muborak</b>	14,1	91,4	259,5	107,1
<b>Nishon</b>	1,2	31,6	354,7	107,3
<b>Kasbi</b>	6,1	43,1	382,5	106,5
<b>Chiroqchi</b>	1,9	67,1	753,9	104,2
<b>Shaxrisabz</b>	40,7	125,1	287,1	102,8
<b>Yakkabog`</b>	1,9	23,0	470,7	105,2
<b>Qarshi sh</b>	538,2	124,3	1651,5	97,3

Shaxrisabz sh


9,9

35,1

492,7

106,9

**Shahar va tumanlar kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2018 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2782,7 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha shahar va tumanlarida o`shish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkichlar Qarshi shahri (8128,1 ming.so`m), Shaxrisabz shahri (3698,8 ming. so`m) va Mirishkor (3583,5 ming.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Qarshi (1397,2 ming.so`m), Shaxrisabz (1514,3 ming.so`m) va G`uzor (1690,3 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2782,7</b>	<b>101,7</b>
G`uzor	1690,3	101,7
Dehqonobod	3160,1	101,1
Qamashi	2354,5	101,5
Qarshi	1397,2	101,4
Koson	3163,7	100,4
Kitob	2200,8	103,0
Mirishkor	3583,5	103,4
Muborak	3261,1	104,2
Nishon	2423,3	103,7
Kasbi	2046,2	102,2
Chiroqchi	1914,4	101,4
Shaxrisabz	1514,3	102,9
Yakkabog`	1852,5	101,6
Qarshi sh	8128,1	101,6
Shaxrisabz sh	3698,8	101,6

Jumladan, 2018 yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 %ni tashkil etib, 195,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


**QASHQADARYO VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2018 yil yanvar-dekabr)*

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2346,8 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 1,5 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2018 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko`ra, 1242,5 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 16,9 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 52,9 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Qarshi shahrida (35,0%), Shaxrisabz shahri (95,5%) va Qarshi tumani (99,9%) tumanlarida yuqori bo`lgan.

**Yirik va kichik korxonalar  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



 **Yirik korxonalar**  
 **Kichik korxonalar**


Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 47,1 % ni tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2346,8</b>	<b>101,5</b>	<b>1104,3</b>	<b>88,4</b>	<b>1242,5</b>	<b>116,9</b>
<b>G`uzor</b>	16,6	130,2	0,4	28,5	16,2	143,0
<b>Dehqonobod</b>	13,5	164,1	0,015	19,9	13,5	165,4
<b>Qamashi</b>	18,4	140,2	0,1	40,8	18,3	142,0
<b>Qarshi</b>	109,9	84,3	0,04	0,4	109,9	92,3
<b>Koson</b>	78,4	94,3	0,0	0,0	78,4	94,3
<b>Kitob</b>	61,0	103,1	0,01	0,0	61,0	103,1
<b>Mirishkor</b>	15,4	149,8	0,0	0,0	15,4	149,8
<b>Muborak</b>	36,3	61,7	21,0	43,1	15,3	151,8
<b>Nishon</b>	79,2	163,8	0,03	93,7	79,1	163,8
<b>Kasbi</b>	13,8	47,7	0,08	0,4	13,7	2,0 m
<b>Chiroqchi</b>	89,5	93,3	0,07	22,9	89,4	93,6
<b>Shaxrisabz</b>	32,2	110,1	0,4	3,8 m	31,8	109,1
<b>Yakkabog`</b>	46,4	105,9	0,09	39,6	46,3	106,2
<b>Qarshi sh</b>	1660,4	101,1	1078,7	92,7	581,8	121,5
<b>Shaxrisabz sh</b>	75,7	160,3	3,4	3,6 m	72,2	156,1



**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`shish sur`atlari Kasbi (47,7 %) va Muborak (61,7%) tumanlarida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo`limi  
Tel.:230-83-91